ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNING AHAMIYATI

Qulboyev Zohid, assistent,
Jizzax politexnika instituti,
EMAIL: qulboyevzohid35@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.66493/dcfepj22

Annotatsiya: Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish global tendensiyaga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini soddalashtirish va talabalarga qulay sharoit yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va tatbiq etish oliy ta’limni zamonaviylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham xorijiy tajribalardan foydalanish orqali innovatsion ta’lim platformalarini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun zamonaviy raqamli ekotizim yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya orqali oliy ta’limni yangi bosqichga olib chiqish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, oliy ta’lim tizimi, xorijiy tajriba, raqamlashtirish, elektron ta’lim platformalari, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, ta’lim transformatsiyasi, zamonaviy ta’lim ekotizimi.

Kirish

Ta’lim tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq bu tizimning samaradorligi va sifatini ta’minlashda zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ta’limni boshqarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Turkiya oliy ta’lim tizimi so‘nggi o‘ttiz yil davomida o‘zining sezilarli yutuqlari bilan ajralib turadi [1]. Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim tizimidagi innovatsiyalar va transformatsiya jarayonlari ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim kampusi sifatidagi ijtimoiy-madaniy mavqeini mustahkamlash, kreativ-ilmiy infrastrukturasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda sifat menejmenti tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada xorijiy tajribalar misolida oliy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonlari va ularning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar

Oliy ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayoni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda:

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish

Raqamli ta’lim bugungi global dunyoning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu boisdan ham rivojlangan mamlakatlarda internet texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Masalan, AQShda Coursera, EdX, Udemy kabi onlayn ta’lim platformalari orqali talabalar va o‘qituvchilar interaktiv kurslardan foydalanish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Germaniya, Finlyandiya va Estoniyada esa sun’iy intellekt asosida individual ta’lim metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda har bir talaba va

DOI: https://doi.org/10.66493/dcfepj22
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

o‘quvchiga moslashtirilgan o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston –2030” strategiyasi doirasida ta’lim jarayonini raqamlashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Dual ta’lim tizimi

Germaniya tajribasi asosida ishlab chiqarish va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanmoqda. Talabalarga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy tajriba ham berilishi ta’minlanmoqda. Mamlakatimizda Dual ta’lim yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar, keng ko‘lamli islohotlarning barchasi o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun hisoblanadi. Dual ta’lim yo‘nalishidagi qulayliklar o‘quvchilar uchun imkoniyatlar eshigidir. Chunchi haftada 3 kun umumta’lim fanlarga oid bilimlarni o‘zlashtirsa, qolgan 3 kunida o‘z yo‘nalishiga tegishli bo‘lgan sexlarda, korxonalarda amaliyot o‘taydilar. Shayxontohur tuman politexnikumida dual ta’lim tizimidagi o‘quvchilar muntazam ravishda yangiliklar, olib borilayotgan islohotlar yuzasidan boxabar etib boriladi, ular uchun davra suhbatlari tashkil etib boriladi. Dual ta’lim tizimi — ixtisoslashgan ta’lim turi bo‘lib, talaba nazariy bilimlarni ta’lim muassasasida, amaliy ko‘nikmalarini esa ish joyida, ya’ni tashkilotda olish imkoniyati yaratiladi [3].

Ilm-fan va innovatsiyalarni tijoratlashtirish

Janubiy Koreya va Yaponiya universitetlarida ilmiy tadqiqotlar natijalari biznes sektoriga integratsiya qilinmoqda. Innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan keng va samarali foydalanish, eng ilg‘or va eng yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, xalq xo‘jaligining barcha soha va tarmoqlarida innovatsiyalarni rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi. Ularni nafaqat iqtisodiyotimizga olib kirish, balki milliy tajriba va yutuqlarimiz bilan yanada yuqori bosqichga chiqish, buning uchun barcha imkoniyat va salohiyatimizni ishga solish muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilm-fan tizimini, ixtirolar va texnologiyalar transferini, infratuzilma va axborot-

DOI: https://doi.org/10.66493/dcfepj22
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatni yuksak darajaga ko‘tarish maqsadida “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Strategiyaning asosiy maqsadi inson kapitalini uning o‘zini rivojlanishining asosiy vositasi sifatida rivojlantirishdan iborat. O‘z navbatida, hududiy innovatsion tizimlarni rivojlantirish har bir inson uchun qulay institutsional muhitni yaratishi, innovatsiya tarkibiy qismlari: ta’lim, fan, bilimlarni tijoratlashtirish, intellektual mulk va moliyaviy investitsiyalarni himoya qilish, davlat-xususiy sheriklik o‘zaro bog‘langan tizimda ishlashi kerak [4].

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun tavsiyalar

Xorijiy tajribalar asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Raqamli ta’lim platformalarini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish.
- Oliy ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash.
- Ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish.
- Akademik mobillik va xalqaro hamkorlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va xalqaro darajada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatini oshirish mumkin. Transformatsiya va innovatsiyalarni tizimli joriy etish natijasida oliy ta’limning samaradorligi va ta’sirchanligi yangi bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Rasulkhujayeva, M., & Xasanova, M. (2024). TA’LIM JARAYONINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI PARADIGMALARI (TURKIYA

DOI: https://doi.org/10.66493/dcfepj22
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

OLIY TA’LIMI MISOLIDA). QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 178-182.

[2] Xidirov, X., & Abdullayeva, S. (2025). O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI TARAQQIYOTIDA INTERNET TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(6), 141-146.

[3] Xasanovna, Y. S. (2024). DUAL TA’LIM YO‘NALISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(1), 117-118.

[4] Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 183-187.

[5] Kuvondikov O.Q., Rajabov R.M., Eshmirzaeva M., Kholmurodov S. Analogy and its role in teaching physics. // physics, mathematics and informatics 2014, No.

[6] Kuvondikov E. O. Pedagogical synergetics basics. Samarkand. 2007. SamDU edition.

[7] Kuvondikov O.Q., Methodology of using innovative technologies in teaching physics. Study guide. Sam-2021.

[8] Kulboyev, Z. (2021). The importance of mechanics in the study of the universe and the development of technology. Academic research in educational sciences, 2(9), 366-369.

[9] Kh, K. Z. (2022). COMPUTER SECTION OF SOLID PHYSICS TEACHING TECHNIQUES USING TECHNOLOGIES. Economics and society, (6-1 (97)), 153-156.

[10] Kulboyev, Z. Kh. (2022). THE SIGNIFICANCE AND IMPORTANCE OF FUNDAMENTAL SCIENCES IN TEACHING STUDENTS. Economics and society, (6-1 (97)), 223-226.

DOI: https://doi.org/10.66493/dcfepj22
© Sharq universiteti, 2026